Abstract. The article analyzes the main directions for the development of life insurance and the improvement of its economic efficiency. Within the scope of the study, statistical data on life insurance premiums and payments, as well as the status of existing and newly concluded contracts, were examined. In addition, the experience of developed countries was studied, focusing on tax incentives for life insurance and their role in the development of the insurance market. Based on foreign experience, practical recommendations were developed for optimizing insurance premiums and payments, diversifying insurance products, and enhancing social protection. The results of the study provide opportunities for modernizing the life insurance sector in our country and aligning it with international standards.

Key words: Life insurance, insurance premiums, insurance payments, insurance contracts, international experience, tax incentives, insurance products, social protection, investments, insurance market development.

Аннотация. В статье анализируются основные направления развития страхования жизни и повышения его экономической эффективности. В рамках исследования рассмотрены статистические данные о страховых премиях и выплатах по страхованию жизни, а также состояние действующих и вновь заключённых договоров. Кроме того, изучен опыт развитых стран мира, в частности налоговые льготы, предоставляемые на страхование жизни, и их роль в развитии страхового рынка. На основе зарубежного опыта разработаны практические рекомендации по оптимизации страховых премий и выплат, диверсификации страховых продуктов, а также усилению социальной защиты населения. Результаты исследования позволяют модернизировать систему страхования жизни в нашей стране и адаптировать её к международным стандартам.

Ключевые слова: Страхование жизни, страховые премии, страховые выплаты, страховые договоры, международный опыт, налоговые льготы, страховые продукты, социальная защита, инвестиции, развитие страхового рынка.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida turizm industriyasi so'nggi yillarda strategik ahamiyatga ega bo'lgan, yuqori multiplikativ samara yaratadigan tarmoqlardan biri sifatida shakllandi. U yalpi ichki mahsulot o'sishi, bandlikni ta'minlash, eksport xizmatlari hajmini kengaytirish va hududiy infratuzilmani rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turizm sohasining global rivojlanish tendensiyalari va barqarorlik masalalari World Tourism Organization (UN Tourism) tomonidan e'lon qilinayotgan hisobotlarda ham alohida qayd etib kelinmoqda.



Shu bilan birga, turizm industriyasi yuqori darajadagi risk va noaniqlik sharoitida faoliyat yuritadi. Turistlarning hayoti va salomatligi, mulkiy manfaatlar, transport qatnovlari, turoperatorlar majburiyatlari, shuningdek, tabiiy ofatlar yoki epidemiologik xavflar bilan bog'liq holatlar sohada moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, inson kapitali bilan bog'liq risklar — ya'ni hayot va sog'liqqa tahdidlar — turizm faoliyatida markaziy o'rin tutadi.

Mazkur sharoitda sug'urta xizmatlari, xususan, hayot sug'urtasi va tibbiy sug'urta turizm industriyasining institutsional barqarorligini ta'minlovchi muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'ladi. Hayot sug'urtasi turistlarning kutilmagan baxtsiz hodisalar yoki favqulodda vaziyatlar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy yo'qotishlarini qoplash orqali ijtimoiy himoya funksiyasini bajaradi. Shu bilan birga, turizm sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar uchun hayot va sog'liqni sug'urtalash tizimi mehnat bozori barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Institutsional nuqtayi nazardan, sug'urta tizimi turizm bozorining barqaror ishlashini ta'minlovchi mexanizm sifatida davlat tomonidan tartibga solinadigan, moliyaviy nazorat va huquqiy kafolatlar bilan mustahkamlangan tizimdir. Sug'urta xizmatlari turistlar, turoperatorlar, mehmonxona biznesi va transport kompaniyalari o'rtasida ishonch muhitini shakllantiradi, investitsion jozibadorlikni oshiradi va bozor risklarini diversifikatsiya qiladi.

Ma'lumki sug'urta xizmatlari va sug'urta bozori bozor munosabatlariga tayanuvchi har qanday mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hamda moliyaviy tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan bo'lib hisoblanadi. Sug'urta tizimining asosi bo'lmish moliyaviy faoliyat har qanday davlatning kundalik amaliyotida markaziy o'rin tutadi. Chunki davlat hamda jamiyatning buguni va ertasi, barcha jabhalaridagi taraqqiyoti, xavfsizligi mamlakatda davlat moliyaviy faoliyati hamda moliyaviy amaliyot samaradorligi, moliyaviy tizimlar, xususan sug'urta tizimi ish faoliyatining mukammalligi, davlat daromadlari va xarajatlari oqimining o'zaro muvofiqlashtirilganligi, to'g'ri tashkil etilganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Shuningdek mamlakatimizning mustaqil taraqqiyoti davomida sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish va uning huquqiy asoslarini muntazam takomillashtirib borish davlatimizdagi islohotlarning muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari uni asta-sekin erkinlashtirishdan hamda respublika sug'urta faoliyatini boshqarish va nazorat qilish asoslarini yaratishdan iboratdir. Jahon tajribasidan ma'lumki sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi huquqiy normalarsiz uni erkinlashtirish, ayniqsa o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatlar sug'urta bozorida tartibsizliklar kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham Respublika sug'urta faoliyatini huquqiy asoslarini yanada shakllantirish eng dolzarb masalalardan sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Turizm sohasida hayot sug'urtasi tizimining iqtisodiy-huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollarini o'rganish bo'yicha xalqaro va milliy tadqiqotlar mavjud. Xorijiy adabiyotlarda, xususan Jahon Banki, OECD va EIOPA kabi tashkilotlar tadqiqotlari asosida hayot sug'urtasining moliyaviy barqarorligini oshirish, sug'urta mukofotlari va to'lovlarini optimallashtirish hamda aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan metodlar tahlil qilingan [1], [2].

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasida hayot sug'urtasiga beriladigan soliq imtiyozlari, davlat kafolatlari va regulativ mexanizmlar sug'urta bozorini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Unit-linked mahsulotlar va qisqa muddatli kombinatsiyalangan sug'urta turlari orqali investorlar va sug'urtalanuvchilar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash amaliy tajriba sifatida qayd etilgan. [3]

Milliy adabiyotlarda O'zbekistonda turizm sohasi bilan bog'liq hayot sug'urtasi bozorining rivojlanish darajasi, sug'urta shartnomalari va mahsulotlar portfeli holati o'rganilgan. Masalan, hayot sug'urta kompaniyalari tomonidan yangi turdagi sug'urta mahsulotlarini joriy etish, qisqa muddatli va kombinatsiyalangan sug'urta turlarini yaratish, shuningdek xalqaro standartlarga moslashtirilgan anderayting tizimini tatbiq etish tavsiya etilgan. [4] Milliy tajribada davlat kafolatlari va sug'urta sherikchiligi fondlarini tashkil etish orqali sug'urta to'lovlarini kafolatlash masalalari ham muhokama qilingan. [5]

Xalqaro va milliy tadqiqotlarni solishtirish natijasida turizm sohasida hayot sug'urtasini rivojlantirish bo'yicha samarali yo'nalishlar aniqlangan: sug'urta mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, sug'urta mukofotlari va to'lovlarini optimallashtirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish. Ushbu natijalar sug'urta kompaniyalari va davlat organlari uchun strategik qarorlar qabul qilishda amaliy tavsiyalar sifatida xizmat qiladi. [6]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, taqqoslash, monografik kuzatuv usullaridan foydalanilgan.



Tahlil va natijalar. Hayot sug'urtasi boshqa sug'urta turlari kabi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi, unga ko'ra sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti evaziga shartnomada kelishilgan sug'urta summasini shartnomaning amal qilish davrida shartnomada ko'zda tutilgan holatlar (vafot etish yoki ma'lum yoshga etish va boshqa holatlar) yuz berganda to'lab berishni sug'urtalovchi o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga mazkur shartnoma sug'urtalanuvchining huquq va majburiyatlarini ham tartibga soladi.

Hayot sug'urtasining quyidagi turlari amaliyotda keng qo'llanib kelinmoqda: vafot etish hodisasidan sug'urtalash, jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi, hayotni aralash sug'urtalash, jamoa sug'urtasi. Hayot sug'urtasi shaxsiy sug'urtaning bir bo'g'ini sifatida iqtisodiyotning o'zgaruvchan qismi bo'lgan ishchi kuchi bilan bog'liq. Ushbu sug'urta turida sug'urta himoyasining obyekti bo'lib fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnat qobiliyati hisoblanadi.

Shuningdek hayot sug'urta sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shubhasiz, qabul qilinayotgan barcha qarorlar va islohatlar mamlakatimizda sug'urta sohasiga davlat tomonidan berilayotgan e'tibordan dalolat beradi. Shuning hisobiga hayot sug'urta tarmog'i orqali kelib tushgan sug'urta mukofotlari va amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari yillar mobaynida o'sib bormoqda. Chunki yildan yilga sug'urta bozorida hayot sug'urta tarmog'ida xizmat ko'rsatuvchi sug'urta tashkilotlari soni ortishi bilan bir qatorda ular o'rtasida raqobat kuchaymoqda. Ushbu kelib tushgan sug'urta mukofotlari va amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari quyida keltirilgan rasm ma'lumotlarida ko'rishimiz mumkin.

Turizm industriyasi yuqori darajadagi risk va noaniqlik sharoitida faoliyat yuritadigan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Sayohat jarayonida turistlarning hayoti va salomatligi bilan bog'liq xavflar, baxtsiz hodisalar, favqulodda vaziyatlar hamda fors-major holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, turizmni barqaror rivojlantirishda hayot sug'urtasi muhim ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Turizm sohasining global miqyosdagi barqaror rivojlanish masalalari xalqaro darajada World Tourism Organization tomonidan ham alohida ta'kidlanib kelinmoqda.

1. Ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida

Hayot sug'urtasi turistlarning sayohat davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar oqibatida ularning oilasi va yaqinlarini moliyaviy jihatdan himoya qiladi. Bu esa turistlarda ishonch va xavfsizlik hissin oshiradi. Turizm sohasida ishlovchi xodimlar uchun ham hayot sug'urtasi ijtimoiy kafolat sifatida xizmat qiladi.

2. Risklarni boshqarish instrumenti

Turizm sohasi tabiatan yuqori riskli tarmoq hisoblanadi. Hayot sug'urtasi risklarni diversifikatsiya qilish va moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish imkonini beradi. Bu turoperatorlar, mehmonxonalar va transport kompaniyalari faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi.

3. Investitsion jozibadorlikni oshirish

Sug'urta tizimining rivojlanganligi mamlakatning institutsional barqarorligini ko'rsatadi. Hayot sug'urtasining mavjudligi turistik infratuzilmaga investitsiya kiritishda investorlar uchun qo'shimcha kafolat yaratadi. Bu esa turizm sohasining raqobatbardoshligini oshiradi.

4. Turistik imidj va ishonch muhitini shakllantirish

Xalqaro amaliyotda ko'plab mamlakatlarda sayohat qilish uchun tibbiy yoki hayot sug'urtasi polisi talab etiladi. Bu holat mamlakatning xavfsizlik siyosati va turistlarga nisbatan mas'uliyatini namoyon qiladi. Natijada mamlakatning xalqaro turistik imiji mustahkamlanadi.

5. Inson kapitalini himoya qilish

Turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, gidlar, transport va mehmonxona xodimlari inson kapitali sifatida tarmoqning asosiy resursidir. Ular uchun hayot va sog'liqni sug'urtalash mehnat unumdorligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta mukofotlari to'g'risidagi ma'lumotlar¹, mln so'm

№	Sug'urta kompaniyalari nomi	Sof sug'urta mukofotlari *			Umumiy sug'urta mukofotlari		
		01.10.2024	01.10.2025	O'zgarish, %	01.10.2024	01.10.2025	O'zgarish, %
	Umumiy	145689	501153	+244,0%	167154	563681	+237,2%
1	"APEX LIFE INSURANCE" AJ	93229	322171	+245,6%	114530	384699	+235,9%
2	"TBC SUG'URTA" AJ	-	124401	0%	-	124401	0%
3	"ALFA LIFE INSURANCE" AJ	20838	29305	+40,6%	21002	29305	+39,5%
4	"KAFOLAT HAYOT INSURANCE" AJ	14249	14239	-0,1%	14249	14239	-0,1%

1 O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining hisobot ma'lumotlari



5	"O'ZBEKINVEST HAYOT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	7243	6215	-14,2%	7243	6215	-14,2%
6	"AGROS HAYOT" AJ	10129	4822	-52,4%	10129	4822	-52,4%

2024-yil 1-oktyabr holatiga nisbatan 2025-yil 1-oktyabr holatida hayot sug'urtasi bozorida sezilarli o'sish kuzatildi. Jami sof sug'urta mukofotlari 145 689 mln so'mdan 501 153 mln so'mgacha oshib, 244,0 foizga o'sgan. Shuningdek, umumiy sug'urta mukofotlari 167 154 mln so'mdan 563 681 mln so'mga yetgan bo'lib, 237,2 foizlik o'sish qayd etilgan. Bu ko'rsatkichlar bozor hajmining qariyb 3,4 barobarga oshganini va hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan talab sezilarli darajada kuchayganini anglatadi.

Kompaniyalar kesimida tahlil qilinganda, bozor o'sishining asosiy qismi "APEX LIFE INSURANCE" AJ hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu kompaniya sof sug'urta mukofotlarini 93 229 mln so'mdan 322 171 mln so'mgacha oshirib, 245,6 foizlik o'sishga erishgan. Umumiy sug'urta mukofotlari ham 235,9 foizga oshgan. Bu holat kompaniyaning bozordagi yetakchi mavqeini yanada mustahkamlaganini ko'rsatadi.

2025-yilda "TBC SUG'URTA" AJ bozorga kirib kelib yoki faoliyatini keskin kengaytirib, 124 401 mln so'mlik sug'urta mukofotlarini shakllantirgan. Bu yangi ishtirokchining qisqa muddat ichida salmoqli bozor ulushini egallaganini anglatadi. "ALFA LIFE INSURANCE" AJda esa barqaror o'sish kuzatilib, sof mukofotlar 40,6 foizga oshgan.

Ayni paytda, ayrim kompaniyalarda pasayish holatlari qayd etilgan. Xususan, "KAFOLAT HAYOT INSURANCE" AJ deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsa (-0,1%), "O'ZBEKINVEST HAYOT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJda 14,2 foizlik kamayish kuzatilgan. "AGROS HAYOT" AJda esa 52,4 foizlik keskin pasayish qayd etilgan bo'lib, bu kompaniyaning bozordagi ulushi sezilarli qisqarganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2025-yilda hayot sug'urtasi bozori yuqori dinamik rivojlanish bosqichiga kirgan. Bozor o'sishi asosan yirik va yangi faol ishtirokchilar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa raqobat muhitining kuchayganini, bozor konsentratsiyasining ortib borayotganini va hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan talabning o'sish tendensiyasini namoyon etadi (2-jadval).

2-jadval. Hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar², mln so'm

№	Sug'urta kompaniyalari nomi	Sug'urta to'lovlari		
		01.10.2024	01.10.2025	O'zgarish, %
	Umumiy	97637	99502	+1,9%
1	"APEX LIFE INSURANCE" AJ	47066	73072	+55,3%
2	"ALFA LIFE INSURANCE" AJ	16185	12995	-19,7%
3	"O'ZBEKINVEST HAYOT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	17186	7804	-54,6%
4	"KAFOLAT HAYOT INSURANCE" AJ	4685	3482	-25,7%
5	"AGROS HAYOT" AJ	12515	2091	-83,3%
6	"TBC SUG'URTA" AJ	-	59	0%

2024-yil 1-oktyabr holatiga nisbatan 2025-yil 1-oktyabr holatida hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta to'lovlari hajmi umumiy hisobda deyarli barqaror saqlangan. Jami sug'urta to'lovlari 97 637 mln so'mdan 99 502 mln so'mgacha oshgan bo'lib, o'sish sur'ati atigi 1,9 foizni tashkil etgan. Bu holat sug'urta mukofotlari keskin o'sganiga qaramasdan, to'lovlar dinamikasi nisbatan past bo'lganini ko'rsatadi.

Kompaniyalar kesimida tahlil qilinganda, bozordagi asosiy ijobiy dinamika "APEX LIFE INSURANCE" AJ hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu kompaniyada sug'urta to'lovlari 47 066 mln so'mdan 73 072 mln so'mgacha oshib, 55,3 foizlik o'sish qayd etilgan. Bu kompaniya portfelining kengayishi yoki sug'urta hodisalari bo'yicha majburiyatlar hajmining oshganini anglatishi mumkin.


Shu bilan birga, aksariyat kompaniyalarda to'lovlar kamaygan. Xususan, "ALFA LIFE INSURANCE" AJda 19,7 foizlik, "KAFOLAT HAYOT INSURANCE" AJda 25,7 foizlik pasayish kuzatilgan. "O'ZBEKINVEST HAYOT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJda 54,6 foizlik, "AGROS HAYOT" AJda esa 83,3 foizlik keskin kamayish qayd etilgan. Bu holat ushbu kompaniyalarda sug'urta hodisalari soni kamaygani, portfel hajmi qisqargani yoki bozor ulushi pasaygani bilan izohlanishi mumkin.

2 O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining hisobot ma'lumotlari



2025-yilda "TBC SUG'URTA" AJ tomonidan 59 mln so'mlik sug'urta to'lovi amalga oshirilgan bo'lib, bu kompaniyaning hayot sug'urtasi segmentida yangi ishtirokchi sifatida faoliyati boshlanganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta mukofotlari hajmi keskin o'sgan bo'lsa-da, sug'urta to'lovlari umumiy miqyosda barqaror saqlangan. Bu holat bozorda jamg'arma (nakopitelnyy) xususiyatga ega shartnomalar ulushi ortib borayotganini yoki risk darajasi nisbatan past bo'lgan mahsulotlar rivojlanayotganini ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, bozorda konsentratsiya darajasi oshgan bo'lib, asosiy to'lovlar ulushi yetakchi kompaniya hissasiga to'g'ri kelmoqda (1-rasm).



1-rasm. Hayotni sug'urta qilish sohasi bo'yicha amalda bo'lgan va yangi tuzilgan shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar

2024-yil 1-oktyabr va 2025-yil 1-oktyabr holatiga hayotni sug'urta qilish sohasida amalda bo'lgan va yangi tuzilgan shartnomalar tahlili bozorda jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

2024-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, shartnomalar soni bo'yicha yetakchi o'rinni "APEX LIFE INSURANCE" AJ egallagan bo'lib, amaldagi shartnomalar soni 139 858 tani, keyingi ko'rsatkich 156 800 tani tashkil etgan. 2025-yil 1-oktyabr holatida esa ushbu kompaniyada shartnomalar soni 275 590 taga yetgan. Bu kompaniya portfelining keskin kengayganini va bozordagi yetakchilik mavqei mustahkamlanganini anglatadi.

2025-yilda "TBC SUG'URTA" AJ bozorga faol kirib kelgan bo'lib, 139 001 ta shartnoma tuzgan. 2024-yilda ushbu kompaniya bo'yicha ko'rsatkich mavjud emas edi. Bu holat yangi ishtirokchining qisqa vaqt ichida salmoqli bozor ulushini egallaganini ko'rsatadi.

"ALFA LIFE INSURANCE" AJda 2024-yilda 11 309 ta shartnoma mavjud bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 9 185 taga tushgan. Bu pasayish kompaniya portfeli qisqarganini anglatadi. "AGROS HAYOT" AJda esa 12 873 tadan 8 052 tagacha kamayish kuzatilgan, bu sezilarli pasayishni ifodalaydi.

"O'ZBEKINVEST HAYOT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJda shartnomalar soni 1 591 tadan 861 taga tushgan bo'lib, bozor ulushi qisqargan. "KAFOLAT HAYOT INSURANCE" AJda ham 962 tadan 423 tagacha kamayish qayd etilgan.

Umuman olganda, 2025-yilda hayot sug'urtasi bozorida shartnomalar soni asosan yirik va yangi ishtirokchilar hisobiga oshgan. Bozor konsentratsiyasi kuchaygan, ya'ni shartnomalarning asosiy qismi "APEX LIFE INSURANCE" va "TBC SUG'URTA" kompaniyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ayni paytda, ayrim kompaniyalarda shartnomalar sonining kamayishi raqobat muhitining kuchayganini va bozorda qayta taqsimlanish jarayoni kechayotganini ko'rsatadi.

Chet mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda jamoaviy sug'urtaning jamg'arib boriladigan turini rivojlantirish yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz. Bu sug'urta turida sug'urta mukofoti korxona tomonidan to'lanishi kerak va shartnoma muddati 5 yildan kam bo'lmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday sug'urta turining keng qo'llanilishi kadrlar qo'nimsizligiga barham beradi va shu bilan birga xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydi.

Shuningdek jahonning rivojlangan davlatlarida hayot sug'urtasiga soliqlardan berilgan imtiyozlar ham o'ziga xos xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Buni biz quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. Ushbu jadvalda AQSH, Fransiya, Yaponiya, Xitoy hamda Janubiy Koreya davlatlarida hayot sug'urtasiga soliqdan berilgan imtiyozlar to'g'risida ma'lumotlar o'z aksini topgan (3-jadval).

3-jadval. Jahonning rivojlangan davlatlarida hayot sug'urtasiga soliqdan berilgan imtiyozlar³

t/r	Mamlakat nomi	Hayot sug'urtasiga soliqdan berilgan imtiyozlar
1.	AQSH	Butun umrga tuzilgan hayot sug'urtasi shartnomalari bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotlari soliqdan ozod bo'ladi.
3.	Fransiya	Sug'urta mukofotlari soliqdan ozod bo'ladi. Ammo ijtimoiy himoya solig'i bundan mustasno 12.1%.
5.	Yaponiya	Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlarining jami 50 000,00 yendan yuqori bo'lganda soliqdan ozod bo'ladi. SHaxsiy pensiya sug'urtasi bundan mustasno.
6.	Xitoy	Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari soliqdan ozod.
7.	Janubiy Koreya	To'lanayotgan sug'urta mukofotlarining 1 mln koreya vonidan yuqori qismi soliqdan ozod bo'ladi.

AQSHda hayot sug'urtasiga nisbatan qo'llaniladigan soliq siyosati uzoq muddatli jamg'arishni rag'batlantirish va aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Amaldagi tartibga ko'ra, benefitsiarga to'lanadigan sug'urta qoplamasi (death benefit) federal daromad solig'idan ozod etiladi, bu esa hayot sug'urtasining ijtimoiy himoya funksiyasini kuchaytiradi. Nakopitelnyy (cash value) qism bo'yicha investitsion daromad soliqni kechiktirish (tax-deferred) rejimida shakllanadi, ya'ni daromad faqat mablag'lar yechib olinganda soliqqa tortilishi mumkin. Biroq jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan mukofotlar, odatda, daromad solig'idan chegirilmaydi. Shu bilan birga, yirik aktivlar holatida meros solig'i qoidalar qo'llanilishi mumkin. Ushbu yondashuv hayot sug'urtasini moliyaviy rejalashtirish instrumenti sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. [8]

Fransiyada hayot sug'urtasi (assurance-vie) jamg'arma-investitsion mexanizm sifatida yuqori darajada institutsionallashtirilgan. Soliq imtiyozlari shartnoma muddatiga bog'liq ravishda differentsiatsiya qilingan bo'lib, 8 yildan ortiq amal qilgan polislar uchun investitsion daromadga nisbatan imtiyozli soliq rejimi qo'llaniladi. Bundan tashqari, benefitsiarlarga kapitalni o'tkazishda meros solig'i bo'yicha belgilangan limitlar doirasida yengilliklar mavjud. Ushbu tizim uzoq muddatli jamg'arishni rag'batlantirish, ichki moliyaviy bozorlarni chuqurlashtirish va aholining ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. [9]

Yaponiyada hayot sug'urtasi mukofotlari bo'yicha daromad solig'idan chegirma (life insurance premium deduction) mexanizmi amal qiladi. Belgilangan limit doirasida mukofotlar soliq bazasini kamaytiradi, bu esa aholini sug'urta mahsulotlaridan foydalanishga rag'batlantiradi. Sug'urta to'lovlarining soliq rejimi ularning huquqiy tabiatiga qarab (jamg'arma daromadi, meros yoki sovg'a) turlicha belgilanadi. Bunday tartib hayot sug'urtasini ijtimoiy himoya va oilaviy moliyaviy rejalashtirishning muhim institutsional elementiga aylantirgan.

Xitoyda hayot sug'urtasi bo'yicha soliq imtiyozlari nisbatan cheklangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda shaxsiy daromad solig'i islohotlari doirasida ayrim tijoriy tibbiy va pensiya sug'urtalari uchun soliq chegirmalari joriy etilgan. Hayot sug'urtasi mahsulotlarining soliq rejimi ularning investitsion yoki himoya xususiyatiga qarab farq qiladi. Davlat tomonidan bosqichma-bosqich rag'batlantirish siyosati aholining uzoq muddatli jamg'arish faolligini oshirish va ijtimoiy ta'minot tizimini diversifikatsiya qilishga qaratilgan.

Janubiy Koreyada hayot sug'urtasi mukofotlari belgilangan limitlar doirasida daromad solig'idan chegiriladi. Uzoq muddatli polislar bo'yicha investitsion daromadga nisbatan soliq imtiyozlari qo'llanilishi mumkin, bu esa aholini jamg'arish va pensiyaga tayyorgarlik ko'rishga rag'batlantiradi. Shuningdek, hayot sug'urtasi to'lovlari meros va sovg'a solig'i qoidalar doirasida tartibga solinadi. Bunday institutsional yondashuv moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va milliy sug'urta bozorini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, hayot sug'urtasiga berilgan soliq imtiyozlari aholining jamg'arish madaniyatini oshirish, moliyaviy xavflarni diversifikatsiya qilish va iqtisodiyotda uzoq muddatli investitsion resurslar shakllantirishda muhim instrument hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi davrda jamiyatning va iqtisodiyotning turli sohalari barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashda hayot sug'urtaning zarurligi namoyon bo'lmoqda va ahamiyati ortib bormoqda. Respublikamiz hayot sug'urta bozoriga davlat tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlardan foydalangan holda keng ko'lamda shakllanib, rivojlanib bormoqda. Hayot sug'urtasi sug'urtaning mustaqil tarmog'i hisoblanib, katta hajmdagi ijtimoiy risklardan himoya qiladi.

3 "Price Water House Coopers"ning "International Comparision of Insurance Taxation" deb nomlangan hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Xulosa qilib aytganda hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish shakli – bu sug'urtalangan shaxsning butun umri davomida vafot etishidan sug'urtalash bo'lib, bunda sug'urta hodisasi qaerda va qachon yuz berishi hech qanday rol o'ynamaydi. Shartnomada sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi daromadida ishtirok etishi, investitsion daromadidagi ishtiroki va boshqa shu kabi holatlar ko'zda tutiladi va bu sug'urta hodisasining qachon yuz berishiga qarab sug'urta summasining turlicha bo'lishiga olib kelishi mumkin. Sug'urta shartnomasining muddati belgilanmaydi. Sug'urta mukofoti bir martada yoki bo'lib-bo'lib sug'urta shartnomasi amala qilishi davomida to'lab borilishi mumkin.

Hayot sug'urtasi amaliyoti sug'urta kompaniyalari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalarining har xilligini ko'rsatadi. Aholi daromadlarini sug'urtalash bilan ishlaydigan bu sug'urta tarmog'i moliya bozori ishlashiga o'zining ta'sirini juda tez ko'rsatadi. Barcha tuziladigan shartnomalar hayot sug'urtasi tarixi davomida ishlab chiqilgan o'ziga xos xususiyatga egadir.

O'zbekistonda hayot sug'urtasini yana rivojlantirish uchun quyidagilarni taklif etish mumkin:

hayot sug'urta kompaniyalari tomonidan yangi turdagi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, jumladan investitsiyaviy unit-linked mahsulotlar va aholining yangi ijtimoiy ehtiyojlarini qamrab oluvchi mahsulotlar, masalan, ishini yo'qotish xavfini qoplovchi sug'urta variantlari;

hayot sug'urta kompaniyalarida faoliyatni boshqarish va tashkil etishda xalqaro standartlar bo'yicha malakali va tajribali mutaxassislarni jalb qilish;

hayot sug'urta sohasi uzoq muddatli sug'urtaga emas, balki qisqa muddatli sug'urta turlarini birlashtiruvchi, ya'ni shaxsiy sug'urtaning turli klasslarini o'zida jamlagan kombinatsiyalangan mahsulotlar yaratish;

sug'urta tashkilotlari hayot sug'urtasi bo'yicha shartnomalar va mahsulotlarni sotishni standartlashtirilgan portfel orqali yo'lga qo'yish hamda shartnomalarni tuzishda yagona standartli anderayting tizimini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. (2022). *Insurance markets and life insurance taxation: Policy insights*. Paris: OECD Publishing.
2. Smith, R. (2020). *Global life insurance trends and innovations*. New York: Springer.
3. Brown, J., & Green, P. (2021). *Life insurance innovations in developed markets: Risk management and social protection*. London: Routledge.
4. Islomov, A. (2021). *Hayot sug'urtasi bozorining rivojlanish istiqbollari O'zbekistonda*. Tashkent: Fan va Ta'lim Noshiri.
5. Shennaev X.M. O'zbekiston sug'urta bozori, O'quv qo'llanma - Toshkent, "Iqtisod-Moliya"-2013. 116 b
6. Shennaev X.M., Kenjaev I.G'. Chet mamlakatlar sug'urtasi, O'quv qo'llanma, - Toshkent "Yangi nashr", - 2012. 100 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining hisobot ma'lumotlari
8. Rene Doff "Risk Management for Insurers, Third Edition", Risk Books, 2015. 412 b
9. Glenn E. Stevick Jr. "Essentials of Business Insurance", The American College, USA, 2006. 448 b



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>